
JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISH TO'G'RISIDA MAHALLADA YOSHLAR BILAN UCHRASHUV BO'LIB O'TDI

3-sektor hududidagi "So'filar" mahalla fuqarolar yig'inida yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha mahalla hududida yashovchi yoshlar hamda ularning ota-onalari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda MFY raisi Ihtiyorjon Mo'minov, mahalla profilaktika inspektori Zafarjon Omonov, mahalla xotin-qizlar faoli Shoiraxon Yunusovalar ishtirok etdilar.

Uchrashuv jarayonida yoshlarni jinoyatchilik yo'lga kirib ketmaslikni oldini olish bo'yicha mahalla, ota-onalar va ta'lim muassasalarining roli, yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda kasb-xunarga yo'naltirish yuzasidan vazifalar, topshiriqlar, tavsiyalar va ko'rsatmalar berildi. Ochiq muloqot tarzida o'tkazilgan uchrashuvda savollar tinglandi va tegishli javoblar berildi.

2024-01-20 12:13:34